


Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020 - yil yanvar-dekabr)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 17567,1 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 100,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi – 95,5 % ni tashkil etdi.



B- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat D-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 90,6 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 26,8 % ga pasayishi kuzatildi.


Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 20,3 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 10,7 % ga o'sishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining
ishlab chiqarish hajmi hamda fizik hajm indeksi**



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 221,0 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining – 1,2 % ni tashkil etdi.



**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**






BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Texnik oltingugurt, <i>tonna.</i>	1464,0	1180,0	-284,0
Shag'al, <i>tonna.</i>	59078	35711,0	-23367,0
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ilash xizmatlari, <i>mln. so'm.</i>	234757,7	155654,0	-79103,7

Ishlab chiqaradigan sanoat



2020-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16770,2 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining – 95,5 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da





BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi – 0,1 % ni (2019-yilning yanvar-dekabr oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,7 % (2,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 58,4 % (56,0 %) va quyi texnologiyalisi – 39,8 % (41,6 %) ni tashkil etdi.

Yuqori texnologiyali

Ulushi % da

0,1

2019- y.

0,1

2020- y.

O'rta-yuqori texnologiyali

Ulushi % da

2,3

2019- y.

1,7

2020- y.

O'rta-quyi texnologiyali

Ulushi % da

56,0

2019- y.

58,4

2020- y.

quyi texnologiyali

Ulushi % da

41,6

2019- y.

39,8


2020- y.

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash maxsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 46,6 % (2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 126,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 20,8 % (2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 114,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,1 % (2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 114,8 %), boshqa nometall mineral maxsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 6,1 % (2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 129,1 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati

2020-yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 843,7 ming tonna avtomobil benzini (2019-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan – 12,3 % ga o'sgan), 21,5 ming tonna kalava ip (30,1 %), 90,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (10,1 %), 659,9 ming litr vino mahsulotlari (14,2 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Mazut, ming tonna	80,8	118,0	37,2
O'simlik yog'i (tozalangan), tonna	12514,0	10977,0	-1537,0
Paxta,tolasi, tonna.	80429,2	94204,7	13775,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna.	82406,1	90754,1	8348,0
Quyish uchun tayyor beton,tonna.	12290,2	25403,0	13112,8
Avtomobil benzini, ming t.	751,2	843,7	92,5
Paxta chigit, tonna.	122757,3	147375,6	24618,3
Qurilish uchun g'ishtlar , ming dona.	3666,0	2273,0	-1393,0
Dizel yoqilg'isi, ming t.	725,4	604,7	-120,7

Ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda (2019-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan) yumshoq bug'doy va spelta uni – 110,1% ga, avtomobil benzini – 112,3 % ga, paxta tolasi – 117,1 % ga, paxta chigit – 120,1 % ga, quyish uchun tayyor beton – 2,1 marta ko'pga o'sishini kuzatish mumkin. Shuningdek dizel yoqilg'isi – 83,4 % ni, qurilish uchun g'ishtlar – 62,0 % ni, o'simlik yog'i (tozalangan) – 87,7 % ni tashkil etib, islab chiqarish sur'atlari kamaygan.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 469,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining – 2,7 % ini) tashkil etdi.


2020-yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi – 10,7 % ga oshganligi kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi yil boshidan yanvar-dekabr, % da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	5,5	6,2	0,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	779,8	841,4	61,6



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 106,7 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining – 0,6 % ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqava suvlarni yoʻqotish, transportirovka qilish va ishlov berish boʻyicha xizmatlar, mln.soʻm	8756,0	9725,6	969,6
Axlat oʼralarni, tindirgichlarni va septiklarni boʼshatish, tozalash va ishlov berish boʻyicha xizmatlar, mln.soʻm	340,6	498,5	157,9

Oʼtgan yilning mos davriga nisbatan axlat oʼralarni, tindirgichlarni va septiklarni boʼshatish, tozalash va ishlov berish boʻyicha xizmatlar – 11,1




BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

%, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 46,4 % ga oshganligi kuzatildi

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6634,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 13,5 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 37,8 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo – 2,1 % (2019-yil yanvar-dekabr oylarida – 3,0 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 19,9 % ni, shuningdek, Buxoro shahri 17,6 % ni, G'ijduvon tumani 9,5 % ni, Kogon tumani 9,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (113,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Olot

(150,2%), Peshku (140,7%), Romitan (132,4 %), hamda Jondor (123,9%) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sishi sur'ati
2020- yilning yanvar-dekabr oylarida**

	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
Olot	157,8	2,4	150,2	Peshku	206,5	3,1	140,7
Buxoro	431,0	6,5	108,7	Romitan	289,9	4,4	132,4
Vobkent	359,4	5,4	106,6	Jondor	424,1	6,4	123,9
G'ijduvon	631,7	9,5	111,3	Shofirkon	343,2	5,2	110,3
Kogon	604,6	9,1	100,4	Buxoro sh.	1170,3	17,6	110,9
Qorako'l	394,5	6,0	120,9	Kogon sh.	299,8	4,5	120,1
Qorovulbozor	1321,7	19,9	111,2				

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 31,6 % ni, shuningdek, Kogon tumani – 11,7 % ni, Buxoro shahri –

9,8 % ni, G'ijduvon tumani – 8,6 % hamda Buxoro tumani – 6,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Olot (205,2 %), Peshku (176,8 %), Qorako'l (156,0%), Romitan (144,1 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2020- yilning yanvar-dekabr oylarida**

	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	87,1	2,1	205,2		122,7	3,0	176,8
	Olot				Peshku		
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	242,8	6,0	110,0		164,7	4,1	144,1
	Buxoro				Romitan		
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	214,7	5,3	101,8		239,4	5,9	134,9
	Vobkent				Jondor		
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	348,7	8,6	111,1		178,3	4,4	108,7
	G'ijduvon				Shofirkon		
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	477,6	11,7	96,2		397,5	9,8	83,3
	Kogon				Buxoro sh.		
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	157,8	3,9	156,0		148,3	3,6	140,1
	Qorako'l				Kogon sh.		
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1283,7	31,6	111,0				
	Qorovulbozor						

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib,

30,1 % ni, shuningdek, G'ijduvon tumani – 11,0 % ni, Qorako'l tumani – 9,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Buxoro shahrida (133,8 %), Qorovulbozor (121,4 %) hamda Romitan tumanlarida (119,6 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2020- yilning yanvar-dekabr oylarida**

	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da				
	70,7	2,7	112,8	Olot			83,8	3,3	108,4	Peshku	
	188,2	7,3	107,0	Buxoro			125,2	4,9	119,6	Romitan	
	144,7	5,6	114,6	Vobkent			184,7	7,2	112,1	Jondor	
	283,0	11,0	111,5	G'ijduvon			164,9	6,4	112,2	Shofirkon	
	127,0	4,9	120,2	Kogon			772,8	30,1	133,8	Buxoro sh.	
	236,7	9,2	105,2	Qorako'l			151,5	5,9	105,4	Kogon sh.	
	38,0	1,5	121,4	Qorovulbozor							

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
2020- yilning yanvar-dekabr oylarida**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1534,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 8,7 % ni tashkil etdi.

**Buxoro viloyati hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari
2020- yilning yanvar-dekabr oylarida**

	Mlrd. soʻm		Ulushi % da	Oʼsishi % da			
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da	
	17567,1	100,0	100,6	Buxoro viloyati *			
	372,7	2,1	101,1		379,1	2,2	102,9
Olot				Peshku			
	644,5	3,7	110,1		533,6	3,0	109,1
Buxoro				Romitan			
	392,3	2,2	108,9		721,2	4,1	106,3
Vobkent				Jondor			
	1269,9	7,2	114,5		641,6	3,7	108,2
G’ijduvon				Shofirkon			
	759,0	4,3	108,1		2147,5	12,2	103,5
Kogon				Buxoro sh.			
	603,7	3,4	108,1		798,7	4,6	107,4
Qorakoʻl				Kogon sh.			
	8303,3	47,3	105,8				



**Buxoro viloyati hududlari kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**


Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining o'sishini, G'ijduvon (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 114,5 %), Buxoro (110,1 %), Romitan (109,1 %), Vobkent (108,9%) hamda Shofirkon (108,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sganligi bilan izohlashimiz mumkin.



Buxoro viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Qorovulbozor tumani (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 47,3 % i), Buxoro shahri (12,2 %), G'ijduvon tumani (7,2 %), hamda Kogon shahri (4,6 %), hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Olot (2,1 %), Peshku (2,2 %), hamda Vobkent (2,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (451262,2 ming so'm), Kogon shahar (13029,6 ming so'm) va Kogon tumaniga (9644,6 ming so'm) o'rtacha Viloyat darajasi ko'rsatkichidan (9076,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3427,9 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 71828,6 ming so'mni, Kogon tumanida – 7681,8 ming so'mni, Kogon shahrida – 4890,1 ming so'mni, Buxoro shahrida – 4167,7 ming so'mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish
2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, ming so‘m**

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>		<i>Iste’mol mahsulotlari</i>	
	9076,7		3427,9	
	Buxoro viloyati			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste’mol mahsulotlari</i>	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste’mol mahsulotlari</i>
	3745,8	1586,3	3069,7	1672,3
	Olot		Peshku	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste’mol mahsulotlari</i>	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste’mol mahsulotlari</i>
	3847,6	2573,2	3744,5	2034,6
	Buxoro		Romitan	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste’mol mahsulotlari</i>	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste’mol mahsulotlari</i>
	2794,2	2559,9	4114,0	2419,3
	Vobkent		Jondor	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste’mol mahsulotlari</i>	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste’mol mahsulotlari</i>
	4161,0	2069,9	3606,2	1928,9
	G‘ijduvon		Shofirkon	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste’mol mahsulotlari</i>	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste’mol mahsulotlari</i>
	9644,6	7681,8	7647,9	4167,7
	Kogon		Buxoro sh.	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste’mol mahsulotlari</i>	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste’mol mahsulotlari</i>
	3672,2	2399,8	13029,6	4890,1
	Qorako‘l		Kogon sh.	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste’mol mahsulotlari</i>	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste’mol mahsulotlari</i>
	451266,2	71828,6		
	Qorovulbozor			

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi
2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, % da**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6104,7 mld. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyl ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 34,8 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Vobkent tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kogon (98,4 %), Shofirkon (84,3 %), Jondor (76,9 %), hamda Buxoro (65,8 tumanlarida kuzatildi).

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Qorovulbozor tumani (1,2 %), Kogon sh. (43,8 %) va Olot (48,9 %) hamda G‘ijduvon (50,6 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda viloyatda 4381 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1221 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 27,9 % i) Buxoro shahriga, 553 tasi (12,6 %) G'ijduvon tumaniga, 349 tasi (8,0%) Buxoro tumaniga, 336 tasi (7,7 %) Kogon tumaniga, 303 tasi (6,9 %) Jondor tumaniga to'gri kelmoqda.



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 1086 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 198 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 18,2 %) Buxoro shahriga, 154 tasi (14,2 %) G'ijduvon tumanida, 86 tasi (7,9 %) Kogon tumanida, 85 tasi (7,8 %) Romitan tumanida tashkil etildi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlari erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 48 ta loyiha bo'yicha 1405,3 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 3,8 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2020- yil yanvar-dekabr oylarida 380 ta yangi ish o'rirlari yaratildi, o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rirlari soni 92,7 % ni tashkil etdi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari (mlrd. so'mda)

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	29	48
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	24	40
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	259,5	1405,3
Eksportga qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh dollar</i>	1,0	3,8
Yaratilgan yangi ish o'rirlari, <i>birlik</i>	410	380

Buxoro viloyati statistika boshqarmasi Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (65) 230-83-06